

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

USMONOVA SHAXNOZAXON ERKINJONOVNA

**ABDURAUF FITRAT ASARLARIDA QO‘LLANGAN
EMOTSIONAL- EKSPRESSIVLIKNI IFODALOVCHI VOSITALARNING
LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Philological Sciences**

Usmonova Shaxnozaxon Erkinjonovna

Abdurauf Fitrat asarlarida qo‘llangan emotsional-ekspressivlikni ifodalovchi
vositalarning lingvopragmatik xususiyatlari 3

Usmonova Shaxnozaxon Erkinjonovna

Linguopragmatic features of the devices expressing emotional-expressiveness in the
works of Abdurauf Fitrat 21

Усмонова Шахнозахон Эркинжановна

Лингвопрагматические особенности средств выражающих эмоционально-
экспрессивность использованных в произведениях Абдурауфа Фитрата 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 44

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

USMONOVA SHAXNOZAXON ERKINJONOVNA

**ABDURAUUF FITRAT ASARLARIDA QO‘LLANGAN EMOTSIONAL-
EKSPRESSIVLIKNI IFODALOVCHI VOSITALARNING
LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2024.2.PhD/Fil4791 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.namdu.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qazaqova Nozima Abdulboqiyevna,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent

Rasmiy opponentlar:

Jamoliddinova Dilnoza Mirxojiddinova,
filologiya fanlari doktori, professor

Rahimov Usmonjon Ergashevich,
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "_____" _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko'chasi 161. Tel: (99869) 228-85-01; faks: (99869) 228-85-02, e-mail: info@namdu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko'chasi 161. Tel: (99869) 228-85-01).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "_____" _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil "_____" _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

N. M. Uluqov,

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, filol.f.d., professor

I. O'. Darvishov,

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

F. I. Karimova,

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d.
(DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida XX asr ikkinchi yarmi XXI asr boshlaridan til, nutqiy faoliyat va unga inson – shaxs munosabatlari tahlili va tadqiqiga e'tibor sezilarli darajada ortib bormoqda. Bu orqali til birliklarining muloqot jarayonida qanday qo'llanilishi, ularning ijtimoiy kontekstdagi roli hamda maqsadga erishishdagi vositachilik funksiyalarining amaliy jihatlarini o'rganish tobora dolzarb ahamiyat kasb eta boshladi. Lingvopragmatika bu jarayonning markazida bo'lib, mazkur soha til va jamiyat yoki shaxs o'rtasidagi o'zaro murakkab munosabatlarni, jumladan, ijtimoiy, nolisoniy omillar til birliklarining semantik, pragmatik va kommunikativ xususiyatlariga ta'sirini har tomonlama o'rganish, lisoniy birliklarni nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan tahlil qilish imkoni va yo'llarini kengaytirdi.

Dunyo tilshunosligida badiiy matnning tarixiy va zamonaviy aspektlardagi lingvopragmatik tahliliy ko'rinishlari lingvistik tadqiqotlarning nazariy asoslariga ega muhim ilmiy yo'nalishlaridan biriga aylanib ulgurdi, natijada sohaga oid tadqiqotlarda badiiy matnga uning asosiy tekshirish obyektlaridan biri sifatida yondashilmoqda. Turli janrlardagi badiiy matnlar muallif – matn – kitobxon uchligi asosida lisoniy va nolisoniy omillar uyg'unligida tahlilga tortilmoqda. Bu yo'nalishdagi izlanishlar muallifning ichki intensiyasi, asar yaratilgan davrga xos xususiyatlarning lisoniy ifodalanishidagi o'ziga xosliklarni shaxs, nutqiy vaziyat, ijtimoiy hayot omillarini hisobga olgan holda o'rganish imkonini bermoqda. Yaqin o'tmish – XX asr birinchi choragida yaratilgan asarlarda emotsional-ekspressivlikni ifodalovchi vositalarning lingvopragmatik xususiyatlarining xoslanganlik belgilarini o'rganish endilikda til ilmiy-nazariy qonuniyatlariga yangicha yondashuvlarni maydonga keltirmoqda.

Yangi O'zbekiston sharoitida o'zbek tilshunosligi zimmasiga globallashuv sharoitida milliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan an'analarga jadid ota-bobolarimiz boshlagan xayrli ishlarning davomchisi sifatida yosh avlodni tarbiyalash birlamchi vazifa qilib belgilanmoqda. Mamlakatimizda jadidlar merosini tiklash va xalqimiz orasida keng targ'ib etish, ularning millatimiz va milliy tilimiz yuksalishi uchun qoshgan hissasini to'la o'rganishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. "... Xalqimiz ozodligi va Vatanimiz ravnaqi yo'lida aziz jonlarini fido qilgan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, ularning faoliyati va merosini yangicha tafakkur asosida o'rganish hamda targ'ib etishga alohida e'tibor berilmoqda. Ularning hayoti va jasorati bugungi tinch va osoyishta kunlarga osonlik bilan erishilmaganini eslatib, milliy istiqlolimizni, jonajon Vatanimizni ko'z qorachig'iday asrashga doimo da'vat etib turadi".¹ Jadidlarning badiiy, publitsistik, ilmiy, ma'rifiy asarlarini tadqiq etish milliy manfaatlarimizni ta'minlash, ma'naviy qadriyatlarimizni tiklash, xususan, Abdurauf Fitrat asarlarida qo'llangan ekspressiv-emotsionallikni ifodalovchi birliklar lingvopragmatik tomonlarini tahlilga tortish muhim ahamiyatga ega dolzarblik kasb etmoqda.

¹ Mirziyoyev Sh. Toshkentda o'tkazilgan "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga tabrigidan – Toshkent, 2023-yil 11-dekabr. / daryo.uz

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 22-fevral, 70-son “Abdurauf Fitrat tavalludining 110 yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi, 2020-yil 30-sentyabrdagi “Ma’rifatparvar jadidchilik harakati namoyandalarini mukofotlash to‘g‘risida”gi, 2024-yil 30-may, PQ 201-sonli “Jadidlar merosi davlat muzeyini tashkil etish to‘g‘risida”gi, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4479-sonli “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarorlari, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-sonli “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 29-yanvardagi 40-son “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi atamalar komissiyasining faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori, 2020-yil 3-martdagi 117-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmon va qarorlari hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyoti ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Lingvopragmatik tadqiqotlar, avvalo, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rivojlana boshladi. Jahon² va rus tilshunosligi vakillari³ tomonidan lingvopragmatikaning ilmiy-nazariy asoslari yoritib berildi. O‘zbek tilshunosligida ham soha rivojida bir necha olimlar hissassi bor.⁴ Mustaqillik yillarida Fitrat shaxsi, faoliyati, ijodiy merosini o‘rganish

² Charles W. Morris. Foundations of the Theory of Signs. – University of Chicago Press, 1938. Pp.59.; John L. Austin. How to Do Things with Words. – London, 1962. – Pp. 250.; Dan Sperber, Deirdre Wilson, Jacob Mey – Pragmatics: An Introduction. – London, 1962. – Pp. 250.; John Searle. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Amsterdam: John Benjamins, 1969. – Pp. 213.; H.P. Grice. Logic and Conversation. – Amsterdam / Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1975. –Pp. 1-7.; Lich, G. N. Principles of Pragmatics. London and New York: Longman,1983. – Pp. 250.; Jacob L. Mey. Pragmatics: An Introduction. – Blackwell Publishing, 2001; Dan Sperber & Deirdre Wilson – Relevance Theory. – New York: Oxford University Press, 2004. – Pp. 369.; Stephen C. Levinson. Pragmatics. – Cambridge University Press, 2008, Pp. 420.

³ Степанов Ю. С. В трехмерном пространстве языка. – М., 1985.; Почепцов О. Основы прагматического описания предложения. – Киев: Вища школа, 1986. – 116 с.; Сусов И. П. Семиотика и лингвистическая прагматика. – ТверГУ, 1990.; Сухих С. А. Прагмалингвистическое измерение коммуникативного процесса: автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Краснодар, 1998. – 30 с.; Любовь Сова. Analytical Linguistics. – Санкт-Петербург, 2012.

⁴ Ҳақимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлар: Филол. фан. номз... дисс. – Фарғона, 1996. – 216 б.; Ҳақимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2001. – 265 б.; Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент, 2008. – 320 б.; Боймирзаева С. Ўзбек тилида матннинг коммуникатив прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар: Филол. фан. д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 2010. – 49 б.; Тоирова Г. И. Нутқий мулоқот ситуатив прагматик система сифатида. – Тошкент: Фан, 2012. – 45 б.; Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2013. – 176 б.; Пардаев А. Ўзбек тили ёрдамчи сўз туркумларининг лисоний тизимдаги ўрни ва лингвопрагматик таҳлили. – Тошкент: Фан, 2013. – 262 б.; Пардаев З. Прагматик лингвистика (ўқув-услубий кўлланма). – Самарқанд, 2013. – 105 б.; Қурбонова М. Болаларга хос нутқий акт турларининг прагмалингвистик таҳлили / Хорижий филология. – Самарқанд. 2016. – № 4. – Б.96-97.; Қурбонова М. Ўзбек болалар нутқининг прагматик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри... дисс. – Тошкент, 2018. – 238 б.;

bo'yicha B.Qosimov, H.Boltaboyev, B.To'ychiboyev, M.Qurbonova, Y.Sayidov, I.G'aniyevlar⁵ tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Biroq tilshunosligimizda badiiy kontekstning lingvopragmatik tadqiqi borasidagi ilmiy izlanishlarni yetarli deb bo'lmaydi. Abdurauf Fitrat asarlarida ekspressiv-emotsionallikni ifodalovchi vositalarini lingvopragmatik aspektda monografik planda tadqiq etilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Namangan davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq "O'zbek tilining sistem va antroposentrik tadqiqi" mavzusi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi Abdurauf Fitrat asarlarida qo'llangan emotsional-ekspressivlikni ifodalovchi vositalarning lingvopragmatik xususiyatlarini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Abdurauf Fitrat asarlari misolida muloqot samaradorligi nutqning eng muhim pragmatik xususiyatlaridan ekanligini dalillash hamda badiiy matn lingvopragmatikasi va tilshunoslikdagi talqiniga oid tadqiqotlarni umumlashtirish;

Abdurauf Fitrat asarlaridagi emotsional-ekspressivlikni ifodalovchi fonetik, leksik, grammatik vositalarning badiiy matn pragmatikasidagi o'rni va ahamiyatini aniqlash;

Fitrat asarlarida qo'llangan metaforalar, individual neologizmlar, ritorik so'roq gaplar, emotsional bo'yoqdor leksemalarning semantik strukturasi va she'riy matn pragmatikasidagi o'rnini aniqlash, dramatik asarlarida emotsional-ekspressivlikning ifodalanishi va muloqot samaradorligidagi ahamiyatini yoritish;

Газиева М. Мулоқот жараёнида просодик воситаларнинг лингвопрагматик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 50 б.; Умурзақова М. Ўзбек тилида сегмент курилмаларнинг лингвопрагматик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри... дисс. – Тошкент, 2019. – 142 б.; Холдорова И. В. Ўзбек тилидаги генеронимларнинг лингвопрагматик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри... дисс. автореф. – Фарғона, 2020. 49 б.; Юсупова Ш. Диний матнларнинг лингвопрагматик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри... дисс. автореф. – Фарғона, 2021. – 44 б.; Каримова Ф. Ўзбек тилидаги диалогик нутқнинг лингвопрагматик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 2021. – 48 б.; Садинова Н. Бадий матнларда контрастнинг лингвопрагматик хусусиятлари (Анвар Обиджон, Усмон Аъзим, Азам Ўктам асарлари мисолида): Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 2021. – 42 б.; Турдиева Ҳ. Нутқий этикет бирликларининг лингвопрагматик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2021. – 180 б.; Buzrukova M. Iltimos nutqiy aktining pragmatik va lingvomadaniy xususiyatlari (ingliz va o'zbek materiallarida): Filol. fan. bo'yicha falsafa d-ri. (PhD) ...diss. – Samarqand, 2021. – 169 b.; Eshaliyeva R. O'zbek tilshunosligida olmoshlarning lingvopragmatik talqini // O'zbekiston Fanlararo Innovatsiyalar va Ilmiy Tadqiqotlar jurnali, bestpublication.org, 2022.; Қозоқова. Н. Бадий матн прагматикаси (Ғафур Ғулом насрий асарлари мисолида) / Монография. – Наманган, 2022. – 136 б.; Axrorov A. Lingvopragmatika. – Toshkent: Lesson Press, 2023. – 95 b; Tursunov M. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asari inglizcha tarjimalarida numerativ va o'lchov birliklarining lingvokulturologik va lingvopragmatik tadqiqi: Filol. fan. bo'yicha falsafa d-ri... diss. avtoref. – Namangan, 2023. – 42 b; Rahimova Z. O'zbek tilida jargonlarning lingvopragmatik tadqiqi: Filol. fan. bo'yicha falsafa d-ri... diss. avtoref. – Termiz, 2024. – 44 b.

⁵ Болтабоев Ҳ. Абдурауф Фитрат. Олий ўқув юртлари учун қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 80 б.; Қурбонова М. Фитратнинг тилшунослик мероси: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1993.; Тўйчибоев Б. Фитрат – тилшунос. – Тошкент, 1995.; Болтабоев Ҳ. Фитратнинг илмий мероси. – Тошкент: Фан, 1996. – 158 б.; Қурбонова М. Абдурауф Фитрат ва ўзбек тилшунослиги. – Тошкент: Университет, 1997.; Сайидов Ё. Фитрат бадий асарлари лексикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2001.; Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: Маънавият, 2002. – 308 б.; Ғаниев И. Фитрат ва фитратшунослик. Дарслик. – Тошкент, 2005. – 300 б.; Болтабоев Ҳ. Фитрат ва жадидчилик. – Тошкент, Mumtoz so'z, 2007. – 242 б.

Fitrat asarlaridagi muallif intensiyasini ifodalovchi leksik birliklarning vazifalarini aniqlash, emotsional-ekspressivlikni ifodalovchi vositalarning zamon nuqtayi nazaridan farqlanishi hamda badiiy matnda namoyon bo'lishini tahlil qilish;

Fitrat asarlarida qo'llangan emotsional-ekspressivlikni ifodalovchi morfologik birliklar, modal va undov so'zlarni o'zbek tilshunosligida mavjud nazariy va amaliy bilimlar asosida lingvopragmatik tahlil etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Abdurauf Fitratning "Abulfayzxon" dramasi va she'rlari olingan.

Tadqiqotning predmetini Abdurauf Fitrat asarlarida qo'llangan ekspressiv-emotsional vositalar tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot mavzusini ochib berishda qiyoslash, zidlash, tasniflash, umumlashtirish, uzviy tahlil, assotsiativ, diaxron, kontekstual tahlil usullaridan foydalanildi.

Ishning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Abdurauf Fitrat asarlaridagi muloqot samaradorligini ta'minlovchi, badiiy matnni shakllantiruvchi unsurlar, turli lisoniy-nutqiy kombinatsiyalar, muhim pragmatik kategoriyalar, xoslangan lisoniy va nutqiy birliklar hamda ularning emotsional-ekspressivlikni ta'minlashdagi ishtiroki, o'rni, kontekstdagi ijtimoiy-g'oyaviy jihatlari diaxron va sinxron aspektlar orqali ochib berilgan;

Abdurauf Fitrat asarlarida qo'llangan emotsional-ekspressivlikni ifodalovchi grammatik vositalar: ritorik so'roq gaplar, modal va undov so'zlarning pragmasemantik strukturasi aniqlanib, ularning matndagi kommunikativ potentsiali ijtimoiy-falsafiy va tarixiy-madaniy konseptual mezonlar orqali asoslangan, badiiy matn pragmatikasidagi o'rni va ahamiyati aniqlangan;

Fitrat asarlaridagi lingvokreativlikni aks ettiruvchi individual neologizmlar, original metafora va o'xshatishlar, okkazional birliklar semantikasi va pragmatikasidagi umumiy-ijtimoiy hamda xususiy-individual o'ziga xosliklar dalillangan;

Abdurauf Fitrat asarlari misolida muallif intensiyasini ifodalashda leksik birliklarning vazifalari, emotsional-ekspressivlikni ifodalovchi vositalarning davr nuqtayi nazaridan farqlanishi, denotativ, individual, konnotativ, uzual-okkazional ma'no ottenkalari, bu ko'rsatkichlarning muloqot samaradorligini oshirishdagi ahamiyati aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Abdurauf Fitrat asarlarida qo'llangan emotsional-ekspressiv birliklarning kommunikativ potentsiali (ta'sir kuchi) va ularni shakllantiruvchi leksik, fonetik hamda grammatik kategoriyalarning pragmatik ma'noni yuzaga keltirishdagi roli tahlil qilinib, ularning nutqiy vaziyatlarda qanday qo'llanilishi aniqlangan; adib asarlarida 500 ga yaqin emotsional birliklarning qo'llanishili kuzatilgan va ularning lingvopragmatik tahlili amalga oshirilgan;

she'riy metaforalar, okkazional birliklar, noodatiy bog'lanishlarning shoir ijodiy tafakkuri mahsuli ekanligi, bunday birliklarning gnoseologik tamoyillar asosida tadqiq etilishi, muallif ongida reprezentatsiyalangan axborotning lisoniy birlik hosil bo'lish jarayonidagi ishtiroki, bunday birliklarning kommunikantlarning

hissiyotiga ta'sir etishi yuzasidan olingan xulosalar badiiy asar ekspressivligini ta'minlashi, poetik matnlarga xos lisoniy xususiyatlarni aniqlashga imkon berishi ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan;

tadqiqot materiallari asosida lingvopragmatika masalalariga oid mavjud ma'lumotlar ilmiy jihatdan boyitilgan va yangi nazariy yondashuvlar ishlab chiqilgan;

dissertatsiyada tadqiq qilingan materiallar XX asrning boshlariga oid o'zbek adabiy tilining poetik imkoniyatlari xususida ma'lumot berishda, darslik va o'quv qo'llanmalarining mukammallashuvida hamda lingvopragmatika muammolarini hal qilishda nazariy manba bo'lib xizmat qilishi belgilangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi tahlil qilingan til materiallarining jahon va o'zbek tilshunosligida keng qamrovli va to'liq o'rganilganligi, olib chiqilayotgan masalalarning aniqligi, g'oyalarning lingvistik qonuniyatlarga mosligi, tadqiqot jarayonida olib borilgan tahlillarning nazariy asosga ega ekanligi, ilmiy asoslangan metodologik qo'llanmalarga, nazariy jihatdan ishonchli manbalarga tayanilganligi hamda tadqiqotda foydalanilgan uslub, metodlar ilg'or ilmiy yondashuvlarga asoslanganligi, erishilgan ilmiy natijalarning amaliyotga tatbiq etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati badiiy kontekstda ekspressiv-emotsional vositalarning lingvopragmatik xususiyatlarga oid mavjud ilmiy-nazariy qarashlarni yangi bilimlar bilan boyitilishi, nutqda qo'llangan til birliklarining lingvopragmatik belgi va xususiyatlarini aniqlashda nazariy asos vazifasini o'tashi bilan izohlanadi.

Dissertatsiyaning amaliy ahamiyati tadqiqot natijalari uslubshunoslik, poetik nutq, lingvopragmatika masalalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari, darsliklar, monografiyalar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratishda foydalanish uchun nazariy manba bo'lib xizmat qilishidir. Mazkur tadqiqot materiallaridan oliy o'quv yurtlari filologiya fakultetlarida bakalavriat yo'nalishi bo'yicha ta'lim oluvchilarga "Matn lingvistikasi", "Hozirgi o'zbek adabiy tili", "Badiiy matn tahlili", "Pragmalingvistika", "Uslubiyat", "Lingvomadaniyatshunoslik" hamda lingvistika (o'zbek tili) magistratura yo'nalishida tanlov fanlarni o'qitishda keng foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Fitrat asarlaridagi ekspressiv-emotsional vositalarning lingvopragmatik tadqiqi asosida:

Muallif intentsiyasini ifodalashda leksik birliklarning vazifalari, emotsional-ekspressivlikni ifodalovchi vositalarning davr nuqtayi nazaridan farqlanishi, denotativ, individual, konnotativ, uzual-okkazonal ma'no ottenkalari, bu ko'rsatkichlarning muloqot samaradorligini oshirishdagi ahamiyati Abdurauf Fitrat asarlari misolida aniqlangan natijalardan Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi 2022-2023-yillarda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida amalga oshirilgan IL-52 tur-21091433 "O'zbek realiyalariga oid maqolalar bazasi platformasini yaratish (Vikipediya elektron ensiklopediyasi mezonlari asosida)" bo'yicha amaliy loyiha doirasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti

universitetining 2025-yil 7-fevraldagi 04/1-582-son ma'lumotnomasi). Natijada loyiha Abdurauf Fitrat asarlari misolida muallif intentsiyasini ifodalashda leksik birliklarning vazifalari, emotsional-ekspressivlikni ifodalovchi vositalarning davr nuqtayi nazaridan farqlanishi, denotativ, individual, konnotativ, uzual-okkazional ma'no ottenkalari, muloqot samaradorligini oshirishdagi ahamiyati aniqlanganligi haqidagi ilmiy xulosalar bilan boyitilgan;

Abdurauf Fitrat asarlarida qo'llangan emotsional-ekspressivlikni ifodalovchi grammatik vositalar: ritorik so'roq gaplar, modal va undov so'zlarning pragmasemantik strukturasi aniqlanib, ularning matndagi kommunikativ potentsiali ijtimoiy-falsafiy va tarixiy-madaniy konseptual mezonlar orqali asoslangan va ularning badiiy matn pragmatikasidagi o'rni va ahamiyatiga asoslangan o'rinlardan Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi 2021-2023-yillarda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan PF-201912258. "O'zbek adabiyotining ko'p tilli (o'zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish" amaliy loyiha doirasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 7-fevraldagi 04/1-583-son ma'lumotnomasi). Natijada badiiy matnda emotsional-ekspressivlikni ifodalovchi vositalarning lingvopragmatik xususiyatiga doir izohlar hamda talqinlar mukammallashgan;

Fitrat asarlaridagi lingvokreativlikni aks ettiruvchi individual neologizmlar, original metafora va o'xshatishlar, okkazional birliklar semantikasi va pragmatikasidagi umumiy-ijtimoiy va xususiy-individual o'ziga xosliklarning dalillanganligi; Fitrat asarlaridagi muloqot samaradorligini ta'minlab, badiiy matnni shakllantiruvchi unsurlar, turli lisoniy-nutqiy kombinatsiyalar, muhim pragmatik kategoriyalar, xoslangan lisoniy va nutqiy birliklar hamda ularning emotsional-ekspressivlikni ta'minlashdagi ishtiroki, o'rni, lisoniy birliklarining kontekstdagi ijtimoiy-g'oyaviy jihatlari diaxron va sinxron aspektlar orqali ochib berilgan o'rinlardagi fikr va mulohazalardan "O'zbekiston" teleradiokanali, "Bedorlik", "Ijod zavqi", "Ta'lim va taraqqiyot", "Millat va ma'naviyat" eshittirishlarining ssenariyasini yozishda foydalanilgan (O'ZMTRK "O'zbekiston" teleradiokanalining 2025-yil 5-maydagi 26-36-983-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur dasturlar yosh avlodni xalqimizning buyuk moddiy va ma'naviy merosiga hurmat, ona tilimizga muhabbat ruhida tarbiyalashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 10 ta ilmiy-anjumanlarda, jumladan 6 ta xalqaro va 4 ta respublika miqyosidagi konferensiyalarda ma'ruza ko'rinishida aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 14 ta ilmiy ish, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 2 ta, xorijiy jurnallarda 2 ta maqola nashr etilgan.


Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 144 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning o'rganilganlik darajasi, maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishiga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Muloqot samaradorligi nutqning eng muhim pragmatik xususiyati sifatida”** deb nomlangan birinchi bobi ikki paragrafdan iborat bo'lib, uning birinchi paragrafida “Badiiy matn pragmatikasining tilshunoslikdagi talqini va tadqiqi” tahlil qilinadi. Badiiy matn tushunchasiga ta'rif, lingvopragmatika sohasining kelib chiqishi, uning lingvistika va pragmatika sohalarida qanday integratsiyalashganligi haqida nazariy fikrlar berilgan bo'lib, lingvopragmatikaning kommunikatsiya jarayonidagi o'rni, ijtimoiy omillar bilan til o'zaro bog'liqligini o'rganuvchi yo'nalish sifatidagi taraqqiyoti, ilmiy tadqiqotlar va yondashuvlar keltiriladi. Shu bilan birga, u tilshunoslikning pragmatik tarmoqlaridan biri sifatida, nutqning ijtimoiy va madaniy kontekstlarda qanday qo'llanilishini tahlil qilishga qaratilgan.

Lingvopragmatika tilning fanlararo sohasidir. U so'zlovchilarning niyatlarini muayyan jamiyatdagi til nutqida qanday ishlatilishini; ularni kontekst, maqsadga muvofiqlik, ijtimoiy va madaniy ta'sirlar bilan bog'liq ekanligini o'rganadi. U tilning ijtimoiy, madaniy va psixologik jihatlarini birlashtiruvchi ilmiy soha sifatida inson muloqotini chuqur va keng ko'lamda tahlil qilishga imkon beradi. Ushbu yo'nalishning rivojlanishi orqali tilning muloqotdagi murakkab rolini tushunish, ijtimoiy aloqalarning shakllanishi hamda rivojlanishini tahlil qilish, madaniy va ijtimoiy kontekstlarda tilning ahamiyatini ochib berish imkoniyati tug'iladi. Lingvopragmatikaning fanlararo o'zaro ta'sirini quyidagi rasmga joyladik:



1-rasm. Lingvopragmatikaning fanlararo integratsiyasi.

Bobning ikkinchi paragrafi “Badiiy matnda emotsional-ekspressivlik kategoriyasi” deb nomlangan bo'lib, emotsional-ekspressivlik kategoriyasining jahon tilshunosligi va o'zbek tilshunosligida paydo bo'lishi, rivojlanishi masalalari yoritilgan.

Nutqiy faoliyatda emotsional-ekspressivlik hodisasi har doim markaziy tushunchalardan biridir. Chunki tilshunoslikda tilning asosiy va birlamchi vazifasi kommunikativ funktsiya hisoblansa ham, kishilar kommunikatsiya (aloqa) jarayonida faqat fikr almashish bilangina cheklanib qolmay, borliq voqea-hodisalariga o‘z munosabatlarini ifodalashga ham intiladilar. Bunda esa ularga emotsional-ekspressiv leksikalar yordamga keladi.

“Ekspressiv” lotincha so‘z bo‘lib, asl ma‘nosiga ko‘ra “kuchaytirilgan” demakdir. Bu termin tilshunoslikka ko‘chma ma‘nosi bilan kirgan bo‘lib, “kuchli hissiy obrazlilik xususiyati” degan ma‘noni ifodalaydi.⁶ His-hayajon psixologiya fanida tekshirilsa-da, tildagi vositalar orqali his-hayajon ifodalangani sabab tilshunoslar tomonidan o‘rganiladi. Ekspressivlik va emotsionallik tushunchalari bir-biriga bog‘liq bo‘lgan, umumiy tushunchalarni ifodalaydi.⁷ “Nutqni yanada yorqinroq, ta’sirchanroq, taassurotliroq qiladigan narsalarning hammasi ekspressiyadir. Demak, nutqning ekspressivligi – nutqni yorqin, ta’sirchan, tasviriy, taassurotli qiluvchi vositalardir”.⁸ Ekspressivlik (lotincha *expressio*) – ifodaviylik, his-tuyg‘uni, xavotirni bildiruvchi kuch degani. O‘zbek tilining izohli lug‘atida unga lisoniy birliklar vositasida fikr ifodalashning ta’sirchanligini orttirish, deb ta’rif berilgan.

Jahon tilshunosligida ko‘p tilshunoslar, jumladan, F.Sossyur, V.Vundt, K.S.Lyuis, E.Bergen, V.F.Gegel, D.Bolingerlar o‘z ilmiy ishlarida emotsional-ekspressiv so‘zlar va ularning ma‘no taraqqiyotini o‘rganganlar. V.I.Shaxovskiy, E.M.Galkina Fedoruk, E.F.Patrishcheva, S.S.Plyamovataya, S.G.Lyubova, S.K.Abakumov, V.V.Vinogradov, Y.Y.Myagkova kabi rus tilshunoslari esa o‘z tadqiqotlarida emotsional so‘zlarni ko‘proq psixologiya faniga bog‘lab o‘rganishga erishishgan.

O‘zbek tilshunosligida ham bu borada samarali tadqiqotlar olib borilganini kuzatishimiz mumkin. Masalan, S.Usmonov, Sh.Rahmatullayev, F.Kamolov, H.Jamolxonov, G.Kabuljanova, G‘.Qambarov, X.Doniyorov, M.Mirtojdiyev, S.G‘oyibov, R.Qong‘urov, A.Abdullayevlarning⁹ ilmiy tadqiqotlarida emotsional-ekspressivlikni ifodalovchi birliklar tahlili qilingan.

Dissertatsiyaning **“Abdurauf Fitrat asarlarida qo‘llangan emotsional-ekspressivlikni ifodalovchi leksik vositalarning pragmatik xususiyatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobining birinchi paragrafi “Emotsional-ekspressiv bo‘yoqdor leksemalarning badiiy matn lingvopragmatik mazmunidagi o‘rni”ni tahlil qilish va uning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan. Tilshunoslikka oid lug‘at tarkibidagi so‘zlarni kuzatishimiz jarayonida ularning ba’zilari biror narsa, hodisalarni atabgina qolmay, ayni paytda so‘zlovchining ifodalanayotgan tushunchaga o‘z bahosini, munosabatini ko‘rsatishini ham kuzatamiz. Bu munosabat doirasiga erkalash, kinoya, qoyil qolish, nafratlanish, g‘azab, jirkanish kabi xilma-xil emotsional munosabat ko‘rinishlari kiradi. Xususan, Fitrat she’rlarida keltirilgan *gul, kul, qopqon, ruh* (“Achchig‘lanma, degan eding”);

⁶ Маджидова Р.У., Мухиддинова Х.С., Султонова Ш.М. Тилшunoslikka kirish. – Toshkent, 2015. – 6 б.

⁷ Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. – Toshkent: Fan, 1983. – 6 б.

⁸ Галькина-Федорук Е. М., Горшкова К. В., Шанский Н.М. Современный русский язык. – М.,1962. – С. 99.

⁹ Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. – Toshkent: Fan, 1983. – 96 б.

yulduz, shaytonlar, zuluklar, qoplonlar, chog'ir (“Mirrix yulduziga”); *bulutlar, umid, yirtilar, ezilasan, sezgusiz* (“Ovunchoq”) kabi soʻzlar, maʼlum tushuncha anglatishdan tashqari, yozuvchining shu tushunchaga loqayd qaramasligini, aksincha, ijobiy va salbiy emotsional munosabatda ekanligini ham koʻrsatib turadi.


Tilshunoslikda bunday xususiyatga ega boʻlgan leksika emotsional-ekspressiv boʻyoqdor leksika, stilistik boʻyoqdor leksika, ekspressiv-stilistik leksika terminlari ostida oʻrganilmoqda. Tilshunoslikda emotsional-ekspressiv maʼnoni ifodalovchi leksemalarni keng tahlil qilinganligidan xabardormiz. “Emotsiya” fransuzcha soʻz boʻlib, his-hayajonga solmoq, toʻlqinlantirmoq maʼnolarini anglatadi. Oʻzbek tilining izohli lugʻatida unga tashqi va ichki qoʻzgʻatuvchilar taʼsiri natijasida odam va hayvonlarda paydo boʻladigan ruhiy kechinma, his-tuygʻu, his-hayajon, qoʻzgʻalish deb taʼrif berilgan.¹⁰ Shu oʻzakdan kelib chiqqan “emotsional” termini esa his-tuygʻu ifodalovchi maʼnosini anglatrsa, “emotsionallik” soʻzi emotsional belgi, xususiyat, shunday belgi xususiyatga egalik maʼnolarini ifodalaydi.



2-rasm. “Qaygʻu” soʻzining 3 xil sheʼrda 3 xil koʻchma maʼnoda ishlatilishi.

Yuqoridagi satrlardan anglaganimizdek, baʼzan soʻzlar oʻzining asl maʼnosidan tashqari koʻchma maʼnoda ham kela oladi. Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, ekspressiv leksikalar nominativ funksiyadan tashqari oʻzlari ifodalayotgan tushunchaga nisbatan soʻzlovchining subyektiv bahosini ham koʻrsatib turadi. Ularning bu xususiyati emotsional-ekspressiv boʻyoq jihatdan neytral boʻlgan soʻzlarga taqqoslanganda, ayniqsa, yaqqol koʻzga tashlanadi:

¹⁰ Ўзбек тилининг изохли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 37 б.



3-rasm. So'zlarning ekspressivlikni ifodalashiga ko'ra qatlamlari.

Demak, ma'lum bo'lganidek, so'z ifodalagan ekspressivlikka ko'ra odatda uch qatlamga ajratiladi: neytral leksika, yuqori stilistik bo'yoqli leksika, past stilistik bo'yoqli leksika.¹¹

Ikkinchi bobning "Metaforalarning lingvopragmatik xususiyatlari" deb nomlangan ikkinchi paragrafida Abdurauf Fitrat asarlaridagi metaforalar asosida kommunikatorlar orasida qo'llangan ekspressiv leksemalarning nutqiy aktlarda namoyon bo'lishi lingvopragmatik aspektida tahlil qilingan. Badiiy matnlarda emotsional-ekspressivlikni oshirishda metaforalarning ahamiyati katta. Metafora (*so'zning o'xshashlik asosida ko'chirib ishlatilishi*) – ko'chimning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Ko'chim til vositalarining obrazli, ta'sirchan bo'lishiga yordam beradigan, so'z yoki iboralarning o'z ma'nosidan tashqari, boshqa ma'noda qo'llanishi natijasida hosil bo'ladigan badiiy tasvir vositasidir. Uning metaforadan tashqari yana metonimiya (*bir tushuncha yoki narsa boshqa bir tushuncha yoki narsa nomi bilan atalishi*), sinekdoxa (*butunning o'rniga qismni yoki aksincha, qismning o'rniga butunni qo'llash*)¹² kabi turlari ham bor.


Ko'chimning metafora turi badiiy matnda eng keng tarqalgan turi sanalib, badiiy nutqni boyitadi, uni ta'sirchan va obrazli qiladi. Metafora orqali ma'no ko'chirilganda, so'z o'z nomi bilan atalmay, boshqa shunga o'xshash birlik nomi bilan ataladi. XX asrda metafora hodisasi tilshunoslarning diqqatini tobora ko'proq torta boshladi, metaforaga yangicha yondashuvlar yuzaga kela boshladi. J. Jeyns, M. Osborn, V. fon Gumboldt, E. Kassirer, N. F. Aliferenko, J. Lakoff, M. Jonson kabi olimlarning o'z tadqiqotlarida metaforaga antropologik nuqtayi nazardan yondashgan fikrlari bu davrga kelib asosiy o'rinni egallay boshladi.

Ekspressivlik yaratishda yozuvchining mahorati muhim rol o'ynaydi. Buni quyidagi misolda ham kuzatamiz: Qalandar. Biz Balxdan kelamiz. ... Bek yigit,

¹¹ Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1987. – 162 б.

¹² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020. – II ж. – Б. 582.

sening *boshingga davlat qushi qo'ng'an. Manglayingda katta bir yulduz yashnab turadir.* ("Abulfayzxon") Bu gapda so'zlovchi qarshisidagi tinglovchining kelajagi juda yorqin ekanligini bashorat qilib, uning kayfiyati chog' bo'lishiga katta hissa qo'shgan. Qalandar Rahimbiyning kelajakda xon bo'lishini biladi, lekin shuni unga to'g'ridan to'g'ri aytmay, uning taqdirini yorqin yashnab turgan yulduzga o'xshatib, ekspressivlikni yana ham oshirishga muvaffaq bo'lgan. Chunki yashnab turgan yulduz yulduzlar orasida eng yorqini hisoblanadi va u hammani birinchilardan bo'lib o'ziga jalb qiladi, insonlarning kayfiyati ko'tarilishiga sababchi bo'ladi. Mana bu misolda esa avtorning yana bir boshqa mahoratini kuzatish mumkin. Ya'ni adib asarda o'xshatishning har ikki turini (*masalan, qora kuch, tog' kabi yigitlar*) ham qatnashtirgan bo'lib, kuchli ekspressiyani hosil qilgan: Xayol. *Ey qora kuch, qurib ketgur taxt! Hech gunohi bo'lmagan bolalardan, tog' kabi yigitlardan millionchalari sen uchun qurbon bo'lub ketarlar. Insonlar tomonidan yaratilgan minglarcha tangrining eng buzuqboshi, eng shumi, eng qop-qora saodat – sensan. Ostingda qolg'anlarni ezguchi bir falokat yuki bo'lg'aning kabi, ustingga chiqqanlarning borliqlarini yondirg'uchi bir olov tepasidirsan.*¹³ ("Abulfayzxon")



4-rasm. "Abulfayzxon" dramasida taxtga o'xshatishlar.

Fitrat asarlarida ijobiy va salbiy emotsional-ekspressiv bo'yoq kasb etgan diniy-afsonaviy tushunchalarni anglatuvchi so'zlar ham metaforik asosida qo'llanganini kuzatdik. M., uchmoh (*yam-yashil uchmohlar*), malak (*Erka malak*) kabi ijobiy, olbosti (*inglizlarga nisbatan qo'llangan "g'arbli olbosti"* (Fitratning shaxsiy topilmasi!) *metaforasi*), shayton (*shaytonlar qo'shini*), mal'un, dev (*dev ishtiholiq hayvonlar*), tamug' (*Tamug' olovlari*), tangri (*taxtga nisbatan "insonning dushman tangrisi" deb ishlatilishi*) kabi salbiy bo'yoqdor so'zlar.

¹³To'xliyev B., Karimov B., Usmonova K. Adabiyot (11-sinf darsligi). II qism. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. – B. 4-31.

Jonsiz predmet “qo‘g‘irchoq” (*kichik xonga nisbatan Rahimbiy qo‘llagan o‘xshatish*), “qop-qora haykal” (*uy, saroy, qo‘noqlarning tundagi ko‘rinishiga o‘xshatma*); o‘simlik (*qizil gulim, tikon, jon chechagim, nozli yaprog‘im, armonim guli, teraklar, xirmon, gulistonim, rayhonim*); ayrim samoviy jismlar (*yulduz, yop-yorug‘ oy, nozli quyosh, titrak (qora, eski) bulutlar, qora yer, ko‘k ko‘kragi*); uy-ro‘zg‘or buyumlari (*beshek, o‘choq*); ichimlik (*chog‘ir, og‘u*) va boshqa turli predmet (*qalqon, zanjir, xanjar, qopqon, qopchig‘, qora qalin pardalar*) nomlarini ifodalovchi so‘zlar ham Fitrat asarlarida metafora asosida ijobiy yoki salbiy emotsional ma‘no anglatadi.

Ikkinchi bobning “Fitrat asarlarida keltirilgan individual neologizmlar semantikasi va ularning pragmatik tahlili” deb nomlangan uchinchi paragrafida A.Fitrat asarlarida qo‘llangan individual emotsional neologizmlar semantikasi va pragmatikasi lingvopragmatik aspektda tahlil etilgan.

O‘tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslikda “okkazionalizmlar” termini neologizmlarning nutqdagi ko‘rinishiga nisbatan qo‘llanilgan. Okkazional ma‘noga ega so‘zni hosil qiishda ijodkor turli xil so‘z yasash usullari va so‘z yasash qoliplari, xususan [so‘z+affiks], [perifiks+so‘z], [so‘z+so‘z] kabi konstruksiyalardan samarali foydalanadi. Bu esa muallif ijodidagi o‘ziga xos uslubiy xususiyatlarni namoyon etadi.¹⁴ Individual neologizmlar, okkazional so‘zlarning qo‘llanilish o‘rinlari ko‘pincha she‘riy matn tarkibida mavjud bo‘lib, bu birliklarni shoir o‘z o‘rnida, maqsadli ishlatsa, matnga betakrorlik bag‘ishlaydi. Kitobxon uchun esa okkazional birliklar asarning yangi ma‘no qirralarini kashf etish imkonini beradi. Fitrat ijodida ham okkazionalizmlar ko‘zga tashlanadi. M: *nosulg‘a, ingla, nigahbon, ko‘lka, purmalol, umidsizcha, o‘qiduqcha, yolg‘uzcha, o‘ksuzlangan tilak, yo‘qsul jon, o‘g‘urli*.

Ketma, tur, tingla arzi holimni,


Arz etay holi *purmalolimni*. (“Go‘zalim, bevafo gulistonim”)

Mazkur she‘riy misrada narsa belgisining me‘yordan oshiqqligini anglatish uchun fors-tojikcha *malol* so‘ziga fors tiliga xos *pur* perafiksini qo‘shib, [perifiks+so‘z] qolipli yangi so‘z hosil qilingan. Izohli lug‘atlarda *pur* qo‘shimchasi -li, -dor, ser- kabi belgining me‘yorida ortiqligini bildiruvchi affikslar bilan ma‘nodoshligi bir qator so‘zlar misolida (*purma‘no, purhikmat kabi*) keltirib o‘tilgan. “Malol” so‘zini esa “zerikish, charchaganlik, tashvish, g‘am-g‘ussa” ma‘nolarda kelishini izohlangan.¹⁵ “Pur” qo‘shimchasi fors tilida “to‘la, but, yig‘indi” ma‘nolarini anglatadi. U ko‘pincha sifat yoki ot oldidan kelib, biror narsaning ko‘pligini yoki to‘liqligini ifodalaydi. Lekin aynan “purmalol” so‘zi haqida lug‘atlarda keltirilmagan. Demak, bu faqat Fitrat tomonidan qo‘llangan neologizm leksika hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida mazkur leksikaning okkazionalizm ekanligini ko‘rsatadi. “Purmalol” so‘zi yuqoridagi izohlar asosida olinsa, she‘rda *butunlay maloldan, tashvishdan iborat* yoki *but g‘am-g‘ussali*

¹⁴Kilichev B.E., Rustamova M.S. Muallif nutqi neologizmlari (Sirojiddin Sayyid she‘rlari misolida) / <https://doi.org/10.5281/zenodo.7622513>. – 134-b.

¹⁵Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат миллий нашриёти. 2006. – 534 б.

degan ma'noda ishlatilyapti. Ijodkor she'r ta'sirchanligini oshirish, hamda yoriga bo'lgan ishqining tavsifini yanada kengroq ifodalash maqsadida ushbu okkazional birlikni yangilik sifatida kiritgan. Fitrat yangi so'z yasashda eng ko'p -dosh affiksidan foydalangan bo'lib, ularni quyidagi chizmada ifodaladik:



5-rasm. Fitrat asarlarida -dosh morfemasi asosida hosil qilingan leksik birliklar.

